



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 21-yanvar, seshanba,
8 (24.034)-son

O'zbek xalq
maqoli

Dono -
bir joyda,
dangasa -
har joyda

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

XITOIY

kompaniyasi bilan
hamkorlikda kichik

GESlar

quriladi



Shu kunlarda Xitoy Xalq Respublikasida xizmat safarida bo'lib turgan viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi A.Boyoev Tyanszin shahrida Tianjin Pump Machinery Group hamda Tianjin Baili Equipment Group korxonari rahbarlari bilan uchrashuvda shunday kelishuvga erishdi.

Jumladan, Xitoydagi gidro-nasos va generatorlar ishlab chiqaruvchi eng yirik korxonalardan biri bo'lgan Tianjin Baili Equipment Group kompaniyasi raisi Vu Jeyjun boshchiligidagi boshqaruv kengashi

a'zolari bilan muzokaralar chog'ida hamkorlikda ishchi guruh tashkil etib, mini GESlar qurish uchun mavjud imkoniyatlarni o'rganish va loyihalar ishlab chiqish, quyosh panellari orqali ishlaydigan suv

nasoslari, quyosh va shamol stansiyalari uchun generator va ehtiyot qismlarni ishlab chiqarish masalalari muhokama etildi.

Davlat sherikligida tashkil etilgan kompaniyada elektr energiyasini olish jarayonida zarur bo'lgan barcha uskuna va texnologiyalar ishlab chiqariladi va u butun mamlakat bo'ylab amalga oshirilgan loyihalarning 20 foizidan ortig'ini amalga oshiradi.

Viloyatimiz delegatsiyasi korxo-

na ko'rgazmalar zali va ilmiy-texnik innovatsiya markazi bilan tanishdi, ishlab chiqarish tarixi, ixtirolar va kelgusi rejalar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Kompaniya vakillari tez orada Samarqandda bo'lib, birgalikda amalga oshiriladigan loyihalarni ishlab chiqishi aytiladi.

Viloyatimiz rahbari Pekin shahrida bir guruh tadbirkorlar bilan uchrashib, ularni Samarqandga va hamkorlikda ishlashga taklif qildi.



Viloyat delegatsiyasi tarkibida bo'lgan tuman va shaharlar hokimlari ham xitoylik rahbarlar, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o'tkazib, hamkorlik bo'yicha kelishuvlarga erishmoqda.

Jumladan, Jomboy tumani hokimi Q.Sobirov Urumchi shahrida "Zhongcheng Duolu" qurilish kompaniyalari guruhi vakillari bilan uchrashdi. Suhbat davomida Jomboy tumanini Urumchi shahri tajribasi asosida zamonaviy qiyofada qayta bunyod etish konsepsiyasini yaratish bo'yicha fikr almashildi. Kompaniya mazkur loyihani yaratish va uni amalga oshirishda hamkorlik qilishga tayyorligini bildirdi.

Past Darg'om tumani hokimi Sh.Rahmonov esa Shanxay shahridagi elektrotexnika mah-

sulotlari, kundalik uy-ro'zg'or buyumlari ishlab chiqaruvchi va dunyoda 3 mingdan ortiq hamkorlari bo'lgan Baoke Co.,LTD korxonasi rahbarlari bilan uchrashdi.

Muzokara davomida Past Darg'om tumanida bu kabi korxonaga faoliyatini yo'lga qo'yish va Markaziy Osiyo mamlakatlariga "ishlab chiqaruvchi - ombor - iste'molchi" tamoyili asosida sifatli va arzon uy-ro'zg'or buyumlari yetkazib berish imkoniyati yaratilishi ta'kidlandi.

Bulung'ur tumani hokimi S.Astonov Xanjou shahrida bo'lib o'tgan biznes forumida tuman iqtisodiyoti va investitsiyaviy salohiyati bo'yicha taqdimot qildi. Forum davomida tuman rahbari xitoylik tadbirkorlar bilan Bulung'urda mikro GESlar qurish va qurilish mollari ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki kelishuvlarga erishdi.

Davlat dasturi loyihasi - muhokamada

Takliflarim inobatga olingan

Mamlakatimizda 2019-yildan e'tiboran "Taraqqiyot strategiyasi" markazi tomonidan qonunchilikka doir hujjatlar, jumladan, davlat dasturlari, Prezidentning farmoni va qarorlari loyihasi keng jamoatchilik muhokamasiga havola etib kelinmoqda.

Bu muhim jarayonlarga o'z hissamini qo'shish, fuqarolik huquqimdan foydalanish maqsadida bu muhokamalarda qatnashaman. Xususan, 2019-yilda yo'nalishli taksirlar faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq taklifim inobatga olinib, davlat dasturida o'z aksini topgan bo'lsa, 2021-yil - "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" davlat dasturi loyihasiga mahalla instituti faoliyatini takomillashtirishda Davlat xizmatlari agentligidagi tekni va pulli xizmatlarni mahallada yo'lga qo'yish bo'yicha taklif bildirgandim.

"O'zbekiston - 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va yashil" iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi Prezidenti farmoni loyihasi va dastur yuzasidan ham bir qator takliflarimni

yubordim.

Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to'liq qamrovini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda o'quv dasturlarini takomillashtirishda xorijiy tajribalarni tatbiq qilishda resurs ta'minotiga, qadriyatlarimizga, shuningdek, Mirzo Ulug'bek madrasasining enagalarni tayyorlash metodikasiga e'tibor qaratisa, degan taklifni ilgari suryapman.

Pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo'yicha to'rtinchi maqsadga olib va chekka hududlarda joylashgan umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun bepul avtobus qatnovini yo'lga qo'yishda har bir tumanda davlat-xususiy sheriklik asosida avtobuslarni lizingga berish va ular tomonidan jamoat transporti xizmati ham ko'rsatilishi lozim degan taklifni bildirdim. Bunday avtobuslardan o'quvchilar maktabga borish va qaytishda bepul foydalanadi.

Fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish bo'yicha 46-maqsadga taklifim shuki, hududlarda yangi sanoat



zonalarni tashkil etishda aholi demografiyasi, hududlarning geografik jihatlari, shuningdek, sanoat zonalari tashkil etilgan hududlardagi tadbirkorlik subyektlari tajriba amaliyotlarini ommalashtirish, shuningdek, yangi tashkil etiladigan sanoat zonalarida o'zaro axborot, tovar, xomashyo almashinuvi va hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish bo'yicha 58-maqsadga ichki turistik xizmat ko'rsatuvchi obyektlarda narxni ma'lum muddat davlat tomonidan nazoratga olishni

taklif etyapman. Chunki bizdagi ichki turistik xizmatlarning narxi jahondagi eng qimmat turistik zonalar bilan tenglashadi. Bu esa ichki turizmning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish bo'yicha 60-maqsad yuzasidan ko'p qavatli uy qurayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning sotuv xizmat elementlarini aholi uchun qulay va soddalashtirishga erishish lozim deb hisoblayman.

Aholi farovonligini ta'minlash va hududlarda kundalik masalalarni hal etishda mahallani jamoatchilik hamda davlat organlari o'rtasidagi "tayanch ko'priklarni" aylanitirish bo'yicha 74-maqsad 1-bandiga qonunchiligimizda mahallaning imijini yangi bosqichga ko'tarish, mahalladagi kengashni shakllantirishning yangi mexanizmlarini joriy etish, hududiy vakillik kengashlardagi mahalla ovozi va ishtirokini ta'minlash masalalariga e'tibor qaratisa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shahriyor XOLBOYEV,
Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi Samarqand hududiy filiali direktori v.b.

Munosabat

Tarixiy nomlarni tiklash tarafdorimiz

"Zarafshon" gazetasi shu yil 11-yanvardagi 4-sonida "Mahallamizga aholining roziligisiz nom berilgan" sarlavhali maqola chop etilgan edi.

Mahallamizga aholining roziligisiz nom berilgan

Bizga "Turon" emas, "Arpaariq" ma'qul



Oqdaryo tumanidagi Turon mahallasining avvalgi nomi Arpaariq edi. Arpaariq tarixiy nom bo'lib, mahallamizda shu nom bilan ataluvchi arq mavjud. Arpaariqning o'ziga qanchalik qudrati bo'lsa, nomi ham shunday.

Bir qo'lda 2017-yilda mahallamizning nomi aholining fikri va takliflariga asoslangan o'zgartirildi. Mahalla atigi esa bundan nomini. To'g'ri, Turon tarixiy geografik atama bo'lishi mumkin, lekin bu so'z O'zbek tilining izotli lug'atida yo'q. Xir'o, mahalla nomini o'zgartirish kerak bo'lsa, nega unda shu hudud fuqarolari bilan maslahatlashmasdan, aholining fikri so'ralmas? Vaholanki, "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida geografik obyektlarga nom berishda mahalliy aholining fikri hisobga olinib berilgan.

Mazkur masala yuzasidan tuman hokimligiga bir necha marta murojaat qildik. Murojaatimiz viloyat hokimligiga yuborilishi va himoyasiga qaroridan so'ng mahallamiz nomini "Arpaariq"ga o'zgartirish aytilgan edi. Ammo masala sanga cho'kman topki kabi jumbekti. Darvoqe, xalq tilida "Shahidtepa" nomi bilan atalgan mahallamiz qabristoniga ham ikki yil oldin "Turon" nomi berilgan edi. Bunday hatti yoqindagi xabar topdik. Xo'sh, yashab turgan mahallamizga yangi nom beril-

di-yu, nega biz bilimaymiz? Mavris kelganda aytilay, yon-atrofdagi qabristonning nomi tarixiy nomi o'zgartirilib, bir xil nomlar ko'p berilgan. Misol uchun, Toshkent-Buxoro magistral yo'l yozasida joylashgan Qarqarali qabristonining nomi Zarbdor. Zarafshon daryosining bo'lishi imrog'i - Qoradaryo yozasida Sarka qabristonining nomi esa Mustajilikka o'zgartirilgan. Bu bilan tumanimizda shu nomdagi bir xil qab-

ristonlari soni ko'paydi, votos. Bizningcha ayrim qadimiy geografik nomlar ahamiyatini yo'qotmasligi uchun o'sha hudud aholisi bilan kelishib, o'zgartirish yoki o'z holicha ketajak avlodga yetkazgan ma'qul emasmi? Xullas, mahallamiz va qabristoniga nega aholining roziligi Turon nomi berildi, mahallamizning avvalgi nomi qaytariladimi, yo'qmi?

To'g'ri ESANOV,
Oqdaryo tumani.

Payariqdagi ko'chalar rahbarlarga bo'lib berildi



"ZARAFSHON"ning YouTube sahifasidagi videomateriallarni kuzatib boring!



"KUNIMIZ O'TIB TURIBDI-KU"

AVVALO, SHUNDAY QARASHLARNI O'ZGARTIRISH ZARUR

"Qo'limda biror hunarim yo'q, na tuzuk o'qishni yo yozishni bilaman. Bolalikda hayot shunday ekan, deb, mol yetaklab yuravergan ekanmiz. Endi uyimga kelayotgan mas'ullardan nima so'rashni ham bilmayman. Kasbga o'qiy desam, savodim yo'q, uyalaman. Tadbirkorlik qo'limdan kelmaydi. Nima qil, deysiz?"

Qodaryo tumanidagi mahallalardan biridamiz. Kambag'al deb topilgan oilalardan birini o'rganish davomida berilgan ketma-ket savollardan keyin oila boshlig'i oxiri "yorildi..."

— Nega uyalasiz? Qo'lida diplomi bo'la turib, ikki qator jumlani kelishtirib yozolmaydiganlar bor, -dedim unga dalda berib. — Ana shular uyalasin. Siz berilayotgan imkoniyatdan foydalanib qolishingiz kerak. Biror qiziqqan kasbingiz yo ishingiz bormi?

— Bilmasam, ish chiqsa, ishlayapman. Bo'lmasa, hovlida u-bu ekip, sotamiz. Kunimiz o'tib turibdi-ku.

Joriy yil boshida tumandan 6112 ta oila ijtimoiy himoya reestriga kiritildi. Shundan nisbatan og'irroq ijtimoiy ahvoldagi 440 ta oila tanlab olinib, 88 nafar mas'ulga biriktirilgan. Tuman kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i o'rinborsari Umar Majidovning ma'lum qilishicha, har bir xonadon xatlovdan o'tkazilib, natijasi bo'yicha individual dasturlar ishlab chiqilmoqda. Yil yakunigacha tumanda 1950 ta oilani kambag'allikdan chiqarish rejalashtirilgan.

Misol uchun, Galaravot mahallasida 4 mingga yaqin oila istiqomat qilsa, shundan 48 tasi kambag'al deb topilgan. 10 ta og'ir vaziyatdagi oilaga 3 nafar mas'ul biriktirilgan. Har biri uchun kambag'allikdan chiqarishning alohida yo'nalishi belgilangan. Kimdir tadbirkorlikka qiziqsa, boshqalar uyida, hovlisidagi bo'sh yerdan unumli foydalanish holda daromad qilishni istaydi.

— Ularning ichida boqimandalikka moyillari ham yo'q emas, - deydi mahalladagi hokim yordamchisi Muhammad Mo'minov. — Bundaylarga qancha yordam bermang, kam. Hayot tarzini yaxshilashni istamaydi. Ular bilan ishlashda birinchi navbatda dunyoqarashi, fikrini o'zgartirishga harakat qilayapmiz. Yaratilgan imkoniyatdan unumli foydalanayotganlari ham bor. Ular hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishmoqda.

Shu mahallada istiqomat qiluvchi Javlon Sobirov ikkinchi guruh nogironi. Shunday bo'lsa-da, mehnatdan qochmaydi. Hokim yordamchisining tavsivasi asosida

kreditga olgan elektr skuterida mahallalarni aylanib, ustachilik qiladi.

Bundan tashqari, o'tgan yil oxirida unga subsidiya asosida bir sotilxi issiqxona qurib berildi. Oila unda sholg'om, sabzi va ismaloq yetishtirib, qo'shimcha daromad qilyapti. Biz bu xonadonga borganimizda is-

siqxonadan mahsulotlar yig'ishtirib olinib, yer keyingi ekinga tayyorlanayotgan ekan. Qiziq tomoni, yerga boshqa bir kambag'al oila vakili subsidiya asosida olgan motokultivatorda ishlav bermoqda. Uni ham gapga tutdiki. U mavsumiy ishlarida ishlashi, bo'sh vaqtda motokultivator yordamida qo'shimcha pul topayotganini aytdi.

Tumanning Yangihayot mahallasida ham 15 ta oila kambag'allik muammosiga duch kelgan. Ularga Sayxunobod tajribasi asosida turli sohalarni qamrab olgan holda daromad topish yo'llari o'rgatilmog'da. Jumladan, Shahnoza Qamarova oilasi bugungi kunda nonvoylik bilan shug'ullanmoqda. Tez orada imtiyozli kredit olib, mashina xarid qilishmoqchi. Bu mahsulotni yanada uzoqroq joylarga yetkazish imkonini beradi.

— Bu ishni 2022-yilda 33 million so'm imtiyozli kredit olib boshlagan edik, - deydi onaxon. — Uch yil ijarada turib ishlagdik, daromadimiz yaxshi emasdi. Yig'inib, uyimizda nonvoyxonam qurdik. Hokim yordamchisining yordami bilan zamonaviy pechlar oldik. Natijada xorijda ishlab yurgan o'g'limni qaytarib, ish bilan ta'minlash imkoni yaratildi. Korxonamiz sekin-sekin rivojlanayapti. Maqsadlarimiz katta.

Hokim yordamchisi Bobomurod Nurboyevning aytishicha, bu oilaning hovlisiga suv chiqarishga ham yordam berilgan. Endi bo'sh turgan yerdan unumli foydalanishga ko'maklashilyapti.

— Biz aynan shunday oilalarni ko'proq qo'llab-quvvatlashimiz kerak, - deydi Bobomurod Nurboyev. — Chunki ular harakatda, bu esa albatta, o'z samarasini beradi. Tadbirkor bo'lding, deb e'tiborni to'xtatib qo'ysak, ular yana kambag'allikka tushishi mumkin. Aksi bo'lsa, guvohi bo'lganigizdek, qo'shimcha ish o'rinlari yaratilyapti. Maqsadimiz yordam ko'rsatildi, deb hisobot yopish emas, balki natijaga erishish.

Oilalarga biriktirilgan mas'ullar mas'alasiga kelsak, ular har oyda ikki marta oilalarga borib, fuqarolar bilan uchrashishi, ularning muammolarini o'rganib, hal qilish bo'yicha ishni tashkil etishi kerak. Bu jarayon "Onlayn mahalla" platformasida nazorat qilib boriladi. Ya'ni, mas'ul joylardagi hokim yordamchisining plansheti orqali barmoq izi yordamida o'ziga biriktirilgan xonadonga kelganligini tasdiqlashi kerak.

Jarayonni o'rganish davomida ba'zi fikrlar paydo bo'ldi. Misol uchun, har bir rahbar o'ziga berilgan oila bilan 6 oy davomida ishlashi kerak. Agar bu oila shu muddatda kambag'allikdan chiqsa, mas'ul bo'ladi. Aytaylik, yuqorida keltirilgan suhbatdagi kabi, berilayotgan imkoniyatdan unumli foydalanish salohiyatiga ega bo'lmasa yoki kambag'allikdan chiqishni istamas, nima bo'ladi?

Rahbar odam qanday qilib bo'lmasin o'z ko'rsatkichini yaxshilashga harakat qilmaydimi? Bundan boqimandalar foydalanib qolishi aniq. Reestrda chiqish uchun "savdo" boshlanib ketmasa bo'ladi. Buning oldini olish uchun esa barcha hududda ijtimoiy shartnoma tuzilishini ta'minlash, uning shartlarini aniq ko'rsatib, fuqarolarga tushuntirish kerak. Shunda yordam olayotgan ham mas'uliyat sezadi.

Yana bir masala, bu savodi yaxshi bo'lmasa fuqarolar bilan bog'liq. O'rganishlarimiz davomida bu kabi holatlarni ko'p uchratayapmiz. Lekin shu vaqtgacha birorta kambag'alning chala qolgan savodi chiqarilgan, ular bilan psixolog yoki pedagog ishlagan haqida fakt ko'rmadik. Ha, ayni vaziyatda ham pedagog, ham psixolog kerak. Boisi o'z kuchiga ishonmaydigan, jamiyatdan ajralib qolgan kishilarning, birinchi navbatda dunyoqarashini o'zgartirish, tezkor zamonga psixologik moslashtirish lozim. Hayotining asosiy qismini bekorchilik bilan yo kun o'targa ishlab o'tkazgan odamga o'qi, boyib ketasan, deya nasihat qilishning samarasi kam. Kambag'allikni yo'qotmoqchi ekanmiz, muammoning ildiziga e'tibor qaratishimiz lozim.

Asqar BAROTOV,
"Zarafshon"
muxbiri.



SHOVANA

endi «PORLOQ YO'L SOVXOZI» emas...

- Mana yetib keldik.
- Voy, qay go'rga ob kelding?
- "Porloq yo'l" sovxoziga!
- He, nimasi porloq ekan? Hech narsa ko'rinnmayapti-ku?!

- Tong otsin, hammasini ko'rasiz.
"Daydi to'tining qaytishi"
multifilmidagi Vasilii bilan
Keshaning suhbatidan.

Qo'shrabot tumanining Shovana qishlog'i bir paytlar shu multifilmidagi "sovxoz"ga o'xshardi. Yo'llar o'nqir-cho'nqir, tunlari qorong'i, ijtimoiy soha obyektlarining ahvoli achinarli edi. Bugun esa butunlay boshqacha ko'rinishda, bu hudud shaharchaga aylangan. Endi qishloqda "hammasini" ko'rish uchun tong otishi shart emas. Ravon yo'llar, piyodalar yo'laklari, ularni yoritib turgan chiroqlar, zamonaviy maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari, do'kon va tamaddixonalar, mo'jazgina bozorcha mahalla ahliga xizmat ko'rsata boshladi.

- O'tgan 2024-yil shovanaliklar hayotida o'chmas iz qoldirdi, - deydi tuman hokimi

Dilshod Shakarboyev. — Yil davomida bu hududga ulkan qurilish-bunyodkorlik ishlari amalga oshirildi. Ayniqsa, Samarqand-Nurta yo'lining mahalla hududidan o'tuvchi qismi kengaytirilib, asfalt, yonidan piyodalar yo'lga yotqizilgani, nafaqat mahalla ahliga, balki shu hududdan o'tib, qaytuvchi yo'lovchilar va haydovchilar uchun ham qulaylik bo'ldi. Yo'l chetidagi ko'rimsiz tamaddixonalar va do'konlar zamonaviy ko'rinishga keltirildi.

Mahalla hududidagi 12-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, 8-, 9-, 35-umumiy o'rta ta'lim maktablari ta'mirlanib, qo'shimcha binolar qurildi. "Shovana" oilaviy shifokorlik punkti ham mukammal ta'mirdan chiqarilib, zarur sharoitlar yaratildi. Mahalla markazi, Nuroniylar maskani va boshqa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish shoxobchalari foydalanishga topshirildi.

Yaqinda mahalladagi ehtiyojmand oilalarning 10 nafar farzandi uchun xatna to'yi tashkil etildi.

To'liq SIDDIQOV,
Jasur BAROTOV (surat).

Gidrotexnik inshootlarni loyihalashda xalqaro kompaniyalar ham qatnashadi

2023-yil 30-avgustda "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilingan. Oldingi tahrirdagi qonunning 59 ta bandiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, 6 bob 34 maddadan iborat ushbu qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan Suv xo'jaligi, Favqulodda vaziyatlar, Mudofaa, Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirlilari, Milliy gvardiya, Tog'-kon geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasining vakolat va majburiyatlari belgilandi.

Qonun bilan I va II toifaga kiruvchi gidrotexnika inshootlarini loyihalashda nufuzli xalqaro tashkilotlar va xorijiy kompaniyalarning yuqori malakali mutaxassislarini jalb qilish belgilandi.

Gidrotexnika inshootlarini loyihalarni bir vaqtda ishlab chiqqan holda qurish va rekonstruksiya qilish taqiqlangan. "Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi viloyat boshqarmasi nazoratida bo'lgan 23 ta inshootda o'tgan yil 46 ta inspektorlik tekshiruvlari o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha foydalanuvchi tashkilotlarga 50 ga yaqin ko'rsatma taqdim etildi.

Akbar AZIMOV,
"Suvxo'jaliknazorat" inspeksiyasi
bosh mutaxassisi.

mobil ishlab chiqish, "GameDev"ni tanlashi mumkin. Yoki kod yozish talab qilinmaydigan beshta yangi sohalaridan biri

- kibervaxsizlik, "Data Science", tizim va biznes tahlili, "DevOps" va yuklangan xizmatlarning uzluksiz ishlanishi ta'minlash, shuningdek, dasturiy ta'minotni sinovdan o'tkazishni tanlaydi.

Shuningdek, IT sohasida ishlayotganlar uchun tezashtirilgan kurslarda malaka oshirish imkoniyati mavjud. Asosiy ta'lim o'rganish tezligiga qarab 1,5 yildan 3 yilgacha davom etadi — buni ishtirokchilar mustaqil belgilab olishadi.

- Samarqanddagi bepul dasturlash maktabi haqida do'stlaringizdan eshitib kelganman, -deydi Surxondaryo

viloyatidan Yunus To'rayev. — Saralash bosqichidan o'tib, mana besh oydirki tarmoq administratori yo'nalishida ishlayapman. Dasturlashni murabbiysiz, ma'ruza yoki baholansiz, faqat amaliy loyihalar ustida individual yoki jamoaviy ish olib boriladigan «tengdosh tengdoshga» ta'lim uslubini asosida o'rganyapman.

Maktab kampuslari har kuni 24 soat ochiq bo'lganligi sababli har bir ishtirokchi o'zi uchun qulay vaqtga qarab o'quv jadvalini tuzib olishi mumkin. O'quv jarayonlari raqamli ta'lim platformasida o'tkazilib, maktab metodologiyasini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishga hamda ta'lim dasturlarini hozirgi bozor talablaridan kelib chiqqan holda tezda moslashtirishga imkon beradi.

Hozirda "School - 21" raqamli texnologiyalari maktabi Samarqand va Toshkent shahrida faoliyat yuritmoqda. Ishtirokchilar orasida ta'lim, logistika, tibbiyot, savdo, avtomobil tijorati va boshqa sohalar vakillarini uchratish mumkin. Endilikda ular dasturlash bo'yicha yetuk xalqaro mutaxassis bo'lish niyatida.

Dilmurod TO'XTAYEV.

Dasturlashni bepul

o'rgatayotgan maktab

Samarqand shahrida dasturlashni bepul o'rgatadigan maktab borligi haqida eshitganmisiz? Mana bir yildirki "School - 21" raqamli texnologiyalar maktabi 18 yoshdan boshlab barcha xohlovchilarga turli sohalardagi 40 dan ziyod yo'nalishda elektron dasturlash tizimini o'rgatib kelmoqda. Bepul dasturlashni o'rgatish bilan birga, yotoqxona bilan ham ta'minlaydi. Bu yerda respublikamiz viloyatlaridan tashqari, qo'shni Tojikiston, Qozog'iston va Qirg'izistondan ishtirokchilar dasturlashning sir-asrorlarini o'rganmoqda.



Raqamli texnologiyalar vazirligi ko'magida faoliyat olib borayotgan "School - 21" maktabida tashkil etilgan press-turda jurnalistlar tinglovchilarning kompyuter savodxonligi, xalqaro talablar asosidagi C, C++, Java, Python, Go, SQL kabi dasturlash tillarini o'rganish jarayonlari bilan tanishdilar.

- Bizga qabul uchun avvalgi bilim, ish tajribasi, dasturlash qobiliyati yoki diplomning borligi ahamiyatga ega emas, - deydi maktab direktori Zarina Luxmanova. - Loyihamizda ishtirok etuvchilarning 50 foizidan ortig'i uchun bu birinchi dasturlash tajribasi bo'ladi. Yakuniy saralash bosqichidan so'ng, har bir ishtirokchi o'z maqsadidan kelib chiqqan holda, individual ta'lim yo'lini yaratadi. Bunda ishlab chiqish yo'nalishlaridan birini, ya'ni backend, frontend,



XORIJDA EMAS,

SAMARQAND da

DAVOLANISHNI ISTOVCHILAR
KO'PAYMOQDA

Yaqin vaqtgacha tibbiyoti rivojlangan davlatlarda davolanib kelayotgan yurtdoshlarimiz haqida ko'p eshitardik. "Katta pulga Xitoyda yuragimga stent qo'ydirib keldim, Janubiy Koreyada yuragimni koronografiyada tekshirtirdim, Turkiyada yuragimda noyob jarrohlik amaliyoti o'tkazdim" degan gap-so'zlarni odatiy qabul qilardik.

So'nggi yillarda yurtimizda tibbiyot sohasiga bo'lgan e'tibor ko'chaygach, bunday gap-so'zlar kamaya boshladi. Endi yurtdoshlarimiz murakkab jarrohlik ishlarini ham o'zimizning shifokorlarga ishonmoqda.

- Yaqinda turkiyalik bir guruh hamkasblarimiz markazimizda yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganib, noyob jarrohlik amaliyotlarida ishtirok etdi, - deydi Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Samarqand mintaqaviy filiali direktori o'rinbosari Rustam Qo'shnazarov jurnalistlar uchun tashkil etilgan press-turda. - Shifoxonamizdagi eng so'nggi rusumdagi zamonaviy jarrohlik va diagnostika asbob-uskunalarini ko'rib, "Endi bildik, o'zbekistonlik bemorlar nima uchun ko'p mablag' sarflab Turkiya klinikalariga bormasdan shu yerda davolanishni istayotganlari sababini" deyshdi.

Hatto endilikda Qozg'iston, Qirg'iziston va Tojikiston kabi qo'shni davlatlardan yuzdan ziyod bemorlar kelib, markazimizda davolanib ketishdi.

- Bir necha yildan buyon kuchli yurak o'rig'idan aziyat chekib kelaman, - deydi Jizzax viloyati Zomin tumanidan kelgan 67 yoshli bemor Erkin Sariboyev. - Xorijdagi klinikalarga borib davolanishga imkoniyat topolmayotgan edim. Joriy yildan boshlab, order o'rniga tibbiy ijtimoiy sug'urta tizimi qo'llanila boshlangach, shu yerga murojaat qildim. Tajribali shifokorlar yuragimga ochiq jarrohlik amaliyotini o'tkazishdi. Ikkilanib kelgan edim, endi tik oyoqda chiqib ketayman. Xursandchiligimning

cheki yo'q. Bizning vrachlarimiz ham xorijdagi klinikalarning shifokorlaridan qolishmas ekan.

Bugungi kunda mintaqaviy filialning 262 o'rinli 13 ta bo'limida 92 nafar malakali shifokor, 209 nafar qo'li em hamshira aholiga tibbiy xizmat ko'rsatmoqda. Vrachlarning 17 nafari chet eldagi nufuzli klinikalarda, 21 nafari esa respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot va milliy tibbiyot markazlarida malaka oshirib kelishdi. O'tgan yili xorij klinikalarining 5 nafar olim va professorlari kelib, mutaxassislarimiz uchun mahorat saboqlari o'tdi. Turkiya, Belarus va Rossiya davlatlaridagi taniqli klinikalar bilan xalqaro hamkorlik dasturi loyihasi bo'yicha memorandumlar imzolangan.

2024-yilda markazda davolanган 12488 nafar bemorning 8670 nafarida yuqori texnologiyalar, 7700 nafarida endovaskulyar, 5145 nafarida esa koronografiya, 1544 nafarida qon tomirlarini stentlash amaliyotlari o'tkazildi. Shuningdek, markazda sun'iy qon aylanish, chuqur gipotermiya va sirkulyator arest sharoitida o'pka arteriyalaridan tromboektomiya, chap torakotomiya mini invaziv mammaro-koronar shuntlash kabi o'ndan ortiq jarrohlik amaliyotlari ilk bor amalga oshirildi. Jumladan, krioblatsiya amaliyoti turkiyalik malakali mutaxassislar hamkorligida bajarildi.

O'tgan yili UTT, ekokardiografiya, EKG, "Xolter" uskunasini, vaqtinchalik tashqi kardiostimulyator kabi 100 ga yaqin zamonaviy texnologiyalar olib kelindi.

- Joriy yildan boshlab muassasimizda ilk bor 24 soatlik tez tibbiy yordam ko'rsatish xizmati tashkil etildi, - deydi maslahat poliklinikasi va diagnostika bo'limi boshlig'i Jahongir Sanaqulov. - Endi yurak-qon tomir kasalliklari bilan o'rganig' bemorlarni to'g'ridan to'g'ri markazimizga olib kelish mumkin. Buning uchun tajribali shifokor va mutaxassislardan navbatchilik tashkil etilgan. Bemorlarga 3 kun davomida bepul diagnostika va davolash xizmatlari ko'rsatiladi.

Maslahat-poliklinikasi shifokorlari Kattaqo'rg'on va Qo'shrabot tumanlarida bo'lib, 2 ming nafar aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazdi. Ayni vaqtda bu jarayon Paxtaxti tumanida davom ettirilmoqda.

Press-tur davomida jurnalistlar bemorlarda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash usullari bilan tanishib, jarrohlik amaliyotini ham kuzatdi.

Dilmurod TO'XTAYEV.
Husan ELTOYEV olgan suratlar.



Zuhro ESHONQULOVA (Zuhra Begim) o'zining ellik yoshini qarshi olmoqda. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. Hozirda xalqaro Amir Temur jamoat fondi viloyat bo'yimi rahbari sifatida faoliyat yuritmoqda. Uning "Oqibat" nasriy, "Umid bahori", "Sevgimga bitilgan nomalar", "Ko'klam nafasi", "Ko'ngil fasli", "Yuragimga aylanan Vatan", "Bir quchoq otash", "Ishq dostoni", "Bolalarga baxshida olam", "Yurtimiz nihollari", "Nima yaxshi dunyoda?", "Ona yurt farzandlari" she'riy kitoblari nashr etilgan.

VATAN QOLARKAN

Tong kiyar oq tusli harir libosin,
Ko'kda chaqnayotgan shamsning ko'zleri.
Bashar topolmadi hali qiyosin,
Vatanim - onamning nurli yuzlari.

Men Vatan rasmini yurakka chizdim,
Ko'zimga singdirdim yurug' olamni.
Goh olis ketganda qadrini bildim,
Quvondim bag'rimga bosgach bolamni.

Bu dunyo o'tkinchi, umr betoqat,
Behuda o'tgaydir bo'lmasa mazmun.
Vaqt oliy hakamdin, qilmagay shafqat,
Ayriqliq jabridan dil tortar mahzun.

Ota-onamiz ham ketarkan tashlab,
Hech bir kas dunyoga bo'lmagay ustun.
Farzandlar qolgaydir ko'zlarin yoshlab,
Ular ham otlanan ketmoqqa bir kun.

Ko'z ochib yumguncha kunlar o'tadi,
Kimki, ne istasa shuni olarkan.
Oylarning qo'lidan yillar tutadi,
Kutib, kuzatguvchi Vatan qolarkan.

Hayot tashvishidan odamzot nasli,
Vaqt kelsa, horib, g'amdan tolarkan.
Tirik jonga faqat sodiq yurt vasi,
Dunyoda birgina Vatan qolarkan!

SHE'R TUG'ILADI

Qarog'lar tubida qimtinar qayg'u,
Ishonch - sarg'ish rangga
aylangan xazon.
Nafat - o'lib ketgan ko'ngilning ruhi,
Bardoshi ko'ksida tosh qotgan inson.

Umid - parvozlarga yo'g'rilgan tuyg'u,
Hayot - har bir kunning sertashvish uyi.
Qayg'u - zulmatlarni quchoqlagan tun,
Hijron - muhabbatning nolavor kuyi.

Orzu - ro'yolarga tutingan bo'shliq,
Ko'zimda yig'laydi azador osmon.
Dunyoga sig'maydi kichkina jonim,
Yurakka yukinib, ingraydi armon.

Tun - bu yolg'izlikning hidiga o'xshar,
Goho bo'g'zimgacha siqib keladi.

To'lg'oqdan tinchisa titroq vujudim,
Yurakdan bir farzand - she'r tug'iladi!...

TUNDA

Sohil oyna tutar osmonga oqshom,
Husnu jamolini ko'rib turar oy.
Zulmat chekinadi ortiga shu dam
Sokinlik yurakdan egallaydi joy.

Oq-qora nim guldor libosin kiyib,
Olisdan kuzatar bir parcha bulut.
Borliqni jismiga singdirgan qarog',
Bir muddat tin olib saqlaydi sukut.

Bafurja bag'rimga tortadi xayol,
Mudroq nigohimdan qochadi uyqu.
Pokiza hislarni mustajob aylab,
Ruhimni poklaydi tip-tiniq tuyg'u.

Sohir tun ko'ngilni sog'inchga o'rab,
Ishqimiz bog'ida yozadi kurtak.
Ehtiros bag'rida to'lg'ongan yurak,
Muhabbat haqida aytadi ertak.

Jimirlab tebranan sohilning suvi,
Ko'zguda tovlanar to'lin oy aksini.
Yulduzlar jo'r bo'lib nur sochgan kecha,
Avjiga chiqadi sohilning raqsi...

QALBING QOLIB KETDI...

Kabutardek qanot yoygan xatlarim -
Yurak qonim bilan yozilgan bitik.
Sensiz mahzun tortar she'riy baytlarim,
Nahotki, biz ayro yo'llardan ketdik.

Sen ketding, ko'zlaring ortga termulib,
Qalbing qolib ketdi mening yonimda.
Yurak hissiyotga o'ychan ko'milib,
Isyon qilaverar har on jonimda.

Sog'inchli xatlarning yo'qdir adog'i,
Faqat senga borib yetgani gumon.
Olisda millillar tole chirog'i,
Intizor ko'ngilning vasliga ishon...

So'ngiga yetmagan sevgi xatlarim,
Xavotir aralash dil tug'yonimda.
Sensiz mahzun tortar she'riy baytlarim,
Ketding, qalbing qoldi mening yonimda.

Zuhra BEGIM.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Rustamova Tulganga (2022-yil 20-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Abdulloyeva Lola Azimovnaga (2024-yil 22-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Shohrux Mirzo ko'chasi, 26-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Alibayeva Lyudmila Ivanovnaga (2022-yil 8-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Imamberdiyev Muxtarga (2006-yil 11-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Ashurov Ashraf Davronovichga (2024-yil 13-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi, Bag'rikenglik ko'chasi, 4-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasida marhum Nasimov Dilshod Ilhomovichga (2024-yil 22-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Saidova Zarina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

rina Xisravovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Oqdaryo tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasida marhum Tolipov San'atjon Obidjon o'g'liga (2024-yil 17-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Sa'dullayev Jamshidxon Safoxonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Oqdaryo tumani Loyish shaharchasi Amir Temur ko'chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasida marhum Abdullayev Sayfillaga (2009-yil 25-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Azizov Sherzod Ilhomovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Dahbed kochasi, 1-uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Xamrayev Komiljon Naymanovichga (2020-

yil 10-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Narpay tumani "Salovot" MFY.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Salomova Barno Buriyevnaga (2024-yil 17-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Norbutayeva Xanifaga (2005-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat

Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Xaitov Shukurullaga (2022-yil 10-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

BEKOR QILINADI
Samarqand tumanidagi "ISLONJON DASHTIOBOD" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 307505876) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT!

Fuqaro Begmatov Jurabek Axmatovichning haydovchilik guvohnomasi (AA 0205966, 2018-yil 15-martda Samarqand viloyati IIB YXXB tomonidan berilgan) Past Darg'om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.
Telefon: +99891-314-57-57.

"Zarafshon" va "Самаркандский вестник" gazetalarini tahririyati jamoasi tahririyat xodimi Yulduz Haydarovaga otasi Xudoyqul HAYDAROVning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludiga 150 yil to'ldi



BEHBUDIY SIYOSIY ARBOB EDI

Viloyat pedagogik mahorat markazida Turkiston jadidlik harakatining asoschisi, ma'rifatparvar alloma, ilm-fan homiysi Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligiga bag'ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi.

Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi va Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyi, viloyat pedagogik mahorat markazi, O'zbekiston - Finlandiya pedagogika instituti hamda Samarqand davlat chet tillar instituti hamkorligida tashkil etilgan anjumanda Behbudiy avlodlari, viloyat hokimligi mas'ullari, yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalarini professor-o'qituvchilari, behbudiyshunos olimlar, samarqandlik taniqli ijodkorlar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Tadbir qatnashchilari dastlab markaz hovlisidagi Mahmudxo'ja Behbudiy byusti poyiga gullar qo'ydi. Ulug' ajdodimizning hayoti va ibratli faoliyati yodga olindi.

Konferensiyaning ochilish marosimida viloyat hokimligi mas'ullari, viloyat

faollari, tadbir tashkilotchilari so'zga chiqib, davlatimiz rahbarining qaroriga ko'ra, bu yil yurtimizda Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi keng nishonlanayotgani, jumladan, Samarqandda ham bu boradagi ishlar boshlab yuborilganini ta'kidladilar.

Viloyat hokimining o'rinbosari R.Qobilovning ta'kidlashicha, viloyat musiqali drama teatrida fevral oyida ulug' allomaning "Padarkush" dramasi qayta sahnalashtirildi. Shuningdek, ushbu sahna asari bu yil yurtimizdagi barcha teatrlarda namoyish etiladi. Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyiga ham yil davomida keng jamoatchilik, talaba va o'quvchi yoshlar, yosh ijodkorlarning safarlari uyushtiriladi va ko'plab tadbirlar ham mazkur ma'rifat maskanida tashkil etiladi.

Bahrom IRZAYEV,
Qatag'on qurbonlari davlat muzeyi bosh ilmiy xodimi:
Biz jaddilar haqida gapirganda ularning ijodkorlik sifatlariga ko'proq urg'u beramiz, ma'rifatparvarlik, odamlarni ilmiy qilishga qaratilgan g'oyalarni eslaymiz. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning ham ta'lim-tarbiya, dramaturgiya, tarjima-shunoslik yoki jurnalistik faoliyati to'g'risida gapiramiz, shu orqali erk va ozodlikni targ'ib etganiga e'tibor qaratamiz. Vaholanki, Behbudiy hazratlari o'z davrining diniy ulamosi, ya'ni muftiy, ma'rifatparvar adib bo'lish bilan birga yetuk siyosiy arbobi ham bo'lganki, o'z davri siyosiy hayotiga baho berib, g'oya va tashabbuslarini ayta olgan.

Xususan, 1906-yilda "Xurshid" gazetasida chop etilgan "Xayrul umuri avsatuho" (ishlarning yaxshisi o'tachasidur) maqolasida o'sha vaqtadagi siyosiy tuzumni tahlil qilib, siyosiy partiyalar ilgari surayotgan g'oyalar mohiyatini ochib bergan. Maqolada chor imperiyasidagi hukmron partiyalar monarxistlari shunday tasvirlanadi. Monarxistlar diktatura yo'li bilan imperatorning har bir aytganini qonunga aylantirib, jamiyatga tabiiy qilar ekan, bu mamlakatda na fan, na madaniyat rivojlanadi va uning kelajigidan ham umid yo'q.



Zarifboy XAVAZMETOV,
Qozog'istonning Sayramdagi ota-onalar jamoati jamg'armasi raisi, mehnat faxriysi:

Mahmudxo'ja Behbudiy tasavvuf ilmining buyuk namoyandasi Ahmad Yassaviy avlodidan. Bu haqda Sayramdan topilgan "Azlar ota shajarasi" manbasida ham keltirilgan. Yassaviy turkiy xalqlar orasida yangi tasavvufiy tariqat yaratgan, uni turkiyda o'z ilmi va hikmatlari orqali xalqqa yetkazgan mashhur mutasavvuf bo'lsa, Behbudiy Turkistonda jadidlik harakatiga asos solgan hamda o'zi tashkil qilgan maktablarda diniy va dunyoviy ta'limotni birgalikda olib borgan. Shuningdek, o'z davrida Islom diniga milliy taraqqiyot yo'liga xizmat qiladigan din sifatida qarab, yoshlarni ham shu din qadriyatlariga ruhida tarbiyalash g'oyasini ilgari surgan. Mutafakkir islom diniga e'tiqod qiluvchilar faqat Turkistonda yashaydigan musulmonlardan iborat emas, degan va barcha musulmonlar bir tanu bir jon bo'lsa, mustamlakachilik zanjirlarini bemalol uzib tashlay olishini ta'kidlagan.



Konferensiyada Mahmudxo'ja Behbudiy avlodlari ham so'zga chiqib, bobolari hayoti va ijodini o'rganish, keng targ'ib etish borasidagi ishlardan mamnun ekanliklarini bildirdilar.

Prezidentimizning buyuk ma'rifatparvar bobomiz tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risidagi qarorini o'zgaracha g'urur bilan qabul qildik, - deydi allomaning evarasi Shohruh Behbudiy. - Bu jaddilarning hayoti va ijodi, qoldirgan boy ma'naviy merosini yanada ko'proq o'rganish va tadqiq etishga xizmat qiladi. Jumladan, bobomiz hayoti va faoliyatiga bag'ishlab o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar, asarlarining nashr etilishi, yaratilayotgan kinoseriyalar va spektakllar, bobomiz yashab ijod qilgan uy-muzeyining obodonlashtirilayotgani avlodlar xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Tadbir qatnashchilari Samarqand shahridagi Mahmudxo'ja Behbudiy uy-muzeyida ham bo'lib, buyuk ajdodimiz hayoti va faoliyatiga oid qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldilar.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

HAYOT SAHNASI yoki SAHNA HAYOTI

Shunday odamlar borki, hayot sahnasidagi "rol"ini qoyilmaqom ijro etadi. Shunday san'atkorlar borki, o'sha sahnadagi "o'yin"larni teatr tomoshalari orqali xalqqa namoyish qiladi. Bir paytlar yurt mustaqilligi, millat sha'ni uchun kurashgan fidoyilar, hayot sahnasida ularga qarshi chiqqan "aktyor"lar bo'lgan. Bugungi kunda ularning hayotini teatr sahnasiga olib chiqayotgan ijodkorlar bor.

PROKUROR SHARIPOV NEGA QAMALGAN?
(Samarqand okrugi sudida jinoyi ish ko'rib chiqilmoqda)

- Siz hali buyurtma bilan yozdirib olgan yolg'on ko'rsatmalarni fakt deyapsizmi? Masalaga adolat nuqtai nazaridan qaramaysiz! Kechirasiz-ku, bu ishingiz bilan kasbimizga dog' tushiryapsiz!

- O'rtoq Sharipov, siz bu yerda bugun prokuror ham, sudya ham emassiz. O'zingizni bosing! Nima, bizni qonunchilikka o'qitmoqchimisiz?

- Hech kimni o'qitmayapman, kasbimizning talabini eslatyapman, xolos.

- Bas! Yetar! O'tiring, sudlanuvchi Sharipov!

Bu - Kattaqo'rg'on shahar drama teatri ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan "Millat fidoyisi" spektaklidan parcha. Unda Kattaqo'rg'on o'sib-ulg'aygan, qatag'on davrida O'zbekiston prokurori, Oliy sud raisi bo'lib ishlagan, sovet tizimining qurboniga aylangan Badriddin Sharipovning hayoti haqida hikoya qilinadi.

TEATR REYTING BO'YICHA OXIRGI O'RINLARDA EDI

Bundan 5-6 yil ilgari mamlakatimizda 39 ta teatr faoliyat yuritardi. Kattaqo'rg'on shahar drama teatri reyting ko'rsatkichlari bo'yicha respublikada oxirgi uchta o'rin, ya'ni 38-o'ringa edi.

- Bundan besh yil ilgari bu yerga ishga kelganimda odamlarni teatrga qiziqirish maqsadida spektakllarni bepul namoyish etganmiz, - deydi

teatr rahbari Botir Tugalov. - O'shanda 4-5 nafar tomoshabin kelgan. Achinarlisi, ularning barchasi xodimlarimizning yaqin qarindoshlari bo'lgan.

"TOMDAN CHAKKA O'TGANDA HAM SAHNANI TARK ETMADIK"

Bir paytlar teatr binosida ijodkorlar uchun ham, tomoshabinlar uchun ham sharoit ko'ngildagidek bo'lma-gan. Qishda sovuq, yozda issiq, yog'ingarchilik paytida esa...

- Og'ir damlarni boshimizdan o'tkazdik, - deydi teatr aktyori O'tkirjon Ochilov. - Sovuq kunlarda oyog'imizdan zax o'tib, shamollab qoldik. Bir muddat ishlasak, bir muddat davolanishga to'g'ri kelardi. Spektakl namoyish etilayotgan paytda yomg'ir yog'ib, tomdan chakka o'tganda tomoshabinlar oldida uyalib qolgan paytlarimiz bo'lgan. Sahnaning chakka tomayotgan joylarga tog'oralari qo'yardik. Ana shunday sharoitda ishladik. Sohaga mehr qo'ygandam chakka tom-sayam ketmaydiga sahnadan.

SHAVKAT MIRZIYOYEV TEATR TOMIGA CHIQQANMI?

2016-yilda prezidentlik saylovi oldidan Shavkat Mirziyoyevning samarqandlik saylovchilar bilan uchrashuvi aylan Kattaqo'rg'on shahar drama teatrida bo'lib o'tgan. - O'shanda Shavkat Miromonovich teatr haqida ham alohida to'xtalgan, - deydi B.Tugalov. - U kishi Samar-

Prokuror Sharipov millat fidoyisi edi

Viloyat musiqali drama teatrida "Millat fidoyisi" nomli spektaklni Badiiy kengash e'tiboriga havola etishga bag'ishlangan taqdimot bo'lib o'tdi.

Spektakl taniqli adib Farmon Toshev asari asosida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri bosh rejissyori Farhod Boynazarov tomonidan sahnalashtirildi. Rollarni Kattaqo'rg'on shahar drama teatri ijodkorlari mohirona ijro etgan.

Taqdimotda Bosh prokuratura, Madaniyat vazirligi, viloyat va shahar hokimliklari hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

- Bu asar ustida hali ish-lashimiz kerak, - deydi Kattaqo'rg'on shahar drama

teatri rahbari Botir Tugalov. - Taqdimotda aniqlangan kam-chiliklarni bartaraf etib, boyitib, tomoshabinlarga namoyish etamiz. Asarda Kattaqo'rg'on o'sib-ulg'aygan, qatag'on davrida O'zbekiston prokurori, Oliy sud raisi o'rinbosari bo'lib ishlagan, sovet tizimining qurboniga aylangan Badriddin Sharipovning hayoti haqida hikoya qilinadi. Spektakl viloyat va Kattaqo'rg'on shahar prokuraturalari homiyligida yaratildi.

Taqdimot yakunida spektaklni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatgan ijodkorlar respublika Bosh prokuraturasi tomonidan taqdirlandi.

Dilnoza MAJIDOVA.



pirib berishimni aytdi. Men esa to'liqlanib, keyingi paytlarda biz ijodkorlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, har yili to'rtta xorijiy davlatga chiqib, o'zbek san'atini ko'rsatib qay-tayotganimizni aytdim. Prezident qo'limni siqib, bayram bilan tabrikladi va yo'lida davom etdi.

TEATR 25 TA DAVLAT BILAN HAMKORLIK QILYAPTI

Keyingi yillarda teatrda davlat buyurtmasi asosida yiliga ikkita davlat spektakli tayyorlanayapti. Bu albatta, xalqaro hamkorlik, qolaversa, teatr moddiy-texnik bazasining mustahkamlanishiga xizmat qilaypti.

- O'tgan 2024-yilda ikkita tarixiy spektakl sahnalashtirildi, - deydi B.Tugalov. - 6 mamlakat ijodkorlari ishtirokida yaratilgan "Buyuk Turon" nomli sahna asari uchun qariyb 1 milliard so'm, indoneziyalik ijodkorlar hamkorligida sahnalashtirilgan "Imom Buxoriy va Sukarno" spektakli uchun esa 500 million so'm dan ortiq mablag' ajratildi. Bu mablag' evaziga ham spektakllar yaratildi, ham dekoratsiya va liboslar keltirilib, teatrimizda qoldi. Ushbu moddiy texnik bazadan biz bir nechta yillar samarali foydalanamiz. Ana shunday imkoniyatlar natijasida 25 ta davlat bilan hamkorlik memorandumlari imzolandi. Jamoamiz bilan xorijiy davlatlarda gastrol safarlarida bo'lyapmiz, xorijliklar teatrimizga kelib, spektakllar namoyish etmoqda. Bundan 2 yil ilgari Turkiyada o'tkazilgan xalqaro festivalda qatnashdik. 27 mamlakatning nufuzli teatrlari ishtirok etgan mazkur tanlovda oliy o'rin - gran-primi qo'lga kiritdik.

To'liq SIDDIQOV, Baxtiyor MUSTANOV (surat).



"Odamga yordam bering!"

Viloyat musiqali drama teatrida taniqli adib, dramaturg Qo'chqor Norqobil qalamiga mansub shu nomli spektaklning premerasi bo'lib o'tdi.

Asarda ayrim kimsalar boylikka uchib, o'zidan ket-gach, hayotning qaltis zarbasidan so'ng o'zligini anglashi hayotiy haqiqatlar bilan mohirona ochib berilgan.

- O'z odam tomoshabin sifatida premerani kuzatdim, - deydi Qo'chqor Norqobil. - Bu sahna asari teatr ijodkorlari tomonidan ko'ngildagidek sahnalashtirildi. Xursand bo'ldim. Dramaturg yozgan asari premerasini tomosha qilishi, o'z farzandining to'yini ko'rishdek gap. Haqiqiy bahoni esa zaldagi tomoshabinlar beradi.

Spektakl Alijon Hasanov rejissyoriga viloyat musiqali drama teatrida iste'dodli ijodkorlari tomonidan sahnalashtirildi.

Sarvinov MAMANOVA.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 205 nusxada chop etildi. Buyurtma 31. Hajmi 2 bosma tabaq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

G.MO'MINOVA.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 772010 667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda

